


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*70810201–Agrotuproqshunoslik va agrofizika magistratura
mutaxassisligining*

MALAKA TALABI

Toshkent - 2024



ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024 yil « 1 » 08 dagi 277- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatning sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	7
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	8
	Bibliografik ma’lumotlar.....	10
	Kelishuv varag‘i.....	11

1. Umumiy tasnifi

70810201 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talablari 70810201 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining magistr talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tasnifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida foydalaniladigan tuproqlarning unumdorligini oshirish, agrofizikaviy xossalarini yaxshilash, tuproqlarni madaniylashtirish va ulardan oqilona foydalanish yo'llarini ishlab chiqish, tuproq unumdorligini boshqarishning ilmiy asoslari va uning parametrlarini optimallashtirish, tuproqlarning suv, tuz, issiqlik, oziqa tartibotlarini boshqarish modellarini ishlab chiqish, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun tuproq va atrof-muhit sharoitlarini optimallashtirish, turli o'simliklarning tuproq sharoitlariga bo'lgan talablarini o'rganishga oid O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi, uning hududiy bo'linmalari va tizim tashkilotlari;

atrof-muhit monitoringi va ekologik muammolarni yechish bilan bog'liq tashkilotlar;

viloyatlar fermer xo'jaliklari uyushmalari;

Oliy ta'lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash, professional ta'limi muassasalari.

1.2.2. Kasbiy faoliyatining obyektlari.

Qishloq xo‘jalik yerlarini agroekologik monitoringi, qishloq xo‘jaligi yerlari holatiga ta’sir etuvchi tabiiy va antropogen omillar, tuproqni himoyalovchi dehqonchilik tizimlarini joriy qilish, tuproqqa turli ishlov berish usullari, yer resurslaridan oqilona foydalanishni boshqarish modellarini ishlab chiqishga oid vazifalarni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va soha korxonalarida agrotuproqshunos, pedagog-tadqiqotchi.

70810201 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika magistratura mutaxassisligi bo‘yicha bitiruvchilar oliy ta’lim va professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan majburiy va tanlov fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *ishlab chiqarish-texnologik faoliyati;*
- *tashkiliy-boshqaruv faoliyati;*
- *loyihaviy-xaritalash va yerlarni baholash faoliyati;*
- *konsalting-servis xizmatini ko‘rsatish faoliyati;*
- *oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda professional ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat (o‘rnatilgan tartibda).*

1.2.4. Magistrning kasbiy vazifalari:

70810201 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika magistratura mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

tuproq unumdorligini oshirish va qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish maqsadida tuproqning agrofizik xossalarini boshqarishning samarali yo‘llarini ishlab chiqish;

turli tuproq-iqlim sharoitida shakllangan tuproqlarning agrofizikaviy va agrokimyoviy xossalarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish;

tuproq-geografik, tuproq-meliorativ va tuproq-ekologik rayonlashtirishni amalga oshirish;

degradatsiyaga uchragan (eroziyalangan, sho‘rlangan, ifloslangan, gipslashgan va b.) tuproqlar rekultivatsiyasining nazariy va ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish;

agroekotizimlar holatiga antropogen ta’sirlar darajasini diagnostika qilish;

“tuproq – o‘simlik” tizimida moddalar va energiya almashinuvini tahlil qilish, modellashtirish va ilmiy asoslangan holda bashoratlash;

o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy-tadqiqot muassasalarida faoliyat yuritish;

ilmiy seminarlar, simpoziumlar va ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza bilan ishtirok etish, ilmiy nashrlarga maqolalar tayyorlash;

innovatsion ko'rgazma yarmarkalarida ilmiy izlanishlar natijalarini namoyish etish;

innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

qishloq xo'jaligi yerlarining ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish maqsadida agromeliorativ tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida tuproqlardan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish va tuproqlarni madaniylashtirish usullarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va ishlab chiqarishga joriy qilish;

zamonaviy geoaxborot tizimlar asosida turli mavzuli xaritalarni tuzish va ishlab chiqarishga joriy qilish;

tuproqlardan oqilona foydalanish maqsadida qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishning aniq va organik dehqonchilikka asoslangan tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

eksperimental va nazariy tadqiqotlarni rejalashtirish hamda amalga oshirish; eksperimental-tadqiqotlar uslublarini ishlab chiqish va statistik ishlov berish va qo'llash;

tuproq resurslarini eroziya, sho'rlanish, botqoqlanish, ifloslanish, zichlanish, degumifikatsiya kabi jarayonlardan saqlash.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

mehnat jamoasiga rahbarlik qilish;

ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishni sifatini nazorat qilish va tatbiq etish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish.

Loyihaviy-xaritalash va yerlarni baholash faoliyatida:

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun tuproq va atrof-muhit sharoitlarini optimallashtirish yo'llarini ishlab chiqish;

turli qishloq xo'jaligi ekinlarining tuproq sharoitlariga bo'lgan talablarini o'rganish asosida ekinlarni yetishtirish uchun yerlarning yaroqliligini baholash;

dala ekinlarining tuproqlarining noqulay sharoitlarga moslashuvini yaxshilash yo'llarini ishlab chiqish;

yerlarni baholash yo'riqnomalari va ilmiy izlanish natijalari bo'yicha tuproqlarning ball bonitetini belgilash.

Konsalting-servis xizmatini ko'rsatish faoliyatida:

xizmat ko'rsatish sohasida me'yoriy-huquqiy xujjatlardan foydalanish;

qishloq xo'jalik ekinlarini hosildorligini oshirishda o'g'itlar va kimyoviy vositalardan oqilona foydalanishni va tuproqlar unumdorligini oshirish bo'yicha fermer xo'jaliklari hamda shaxsiy tomorqa egalariга maslahat berishi;

agrotuproqshunoslik va agrofizikada innovatsion ishlanmalar bo'yicha tahlillar tuzishi;

agrotuproqshunoslik va agrofizika sohasida ilg'or tajribalar va fan yutuqlari to'g'risida ma'lumotlar izlashi va ularni umumlashtirishi hamda ommalashtirish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatda (o'rnatilgan tartibda):

o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallash;

ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash;

oliy va professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

mutaxassislikka oid fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida mutaxassislikka oid fanlar hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

uzluksiz ta'lim tizimining davlat ta'lim standartlari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogik metodologiyani bilishi va undan kasbiy faoliyatida foydalana olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qilish;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilish, ulardan ilmiy faoliyatida foydalanish;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanish, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qilish;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lish, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

axborot texnologiyalaridan foydalana olish, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarini anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish;

pedagogik faoliyatda axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish; ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish;

ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan tanlovlarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

o‘g‘itlar va hosildorlikni oshiradigan kimyoviy vositalardan oqilona foydalanish va tuproqlar muhofazasini tashkil etish;

tuproqlarni unumdorligini tiklash, saqlash va oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va ishlab chiqarishga joriy qilish;

tuproq unumdorligini oshirish va qishloq xo‘jaligi o‘simliklaridan yuqori hosil olish maqsadida tuproqning agrofizik xossalari va issiqlik rejimini boshqarishning samarali yo‘llarini ishlab chiqish;

tuproq issiqlik rejimini boshqaruvchi agrotexnologiyani qo‘llash va tuproq unumdorligini oshirish;

turli tuproq tiplaridagi issiqlik almashish jarayoni, tuproq harorati, tuproqning issiqlik-fizik xossalari va ularning tuproqda kechadigan jarayonlar bilan o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish;

qishloq xo‘jalik ekinlarini yetirishda tuproq haroratini optimallashtirish yo‘llarini ishlab chiqish;

tuproqlarni agroekologik baholashda zamonaviy kommunikatsion, informatika va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Ilmiy faoliyat – ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash, ilmiy-pedagogik ishini olib borish va ilmiy amaliy tajribalar ortirish jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetentsiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim mutaxassisligi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayorlash hamda himoya qilish;

2. Ilmiy-pedagogik ish;

3. Ilmiy amaliyot (tajriba ortirish)

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar			
1.01	ITMM1204	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	2
1.02	MFO‘MM1104	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	120	4	1
1.03	AGTITUM1104	Agrotuproqshunoslikda ilmiy-tadqiqot	120	4	1

		uslublari			
1.04	ANTM1106	Antropogen tuproqlar	180	6	1
1.05	TGTUM1206	Tuproq-geobotanik tadqiqot uslublari	180	6	2
1.06	TBIAM1206	Tuproq bonitirovkasining ilmiy asoslari	180	6	2
1.07	YEAEBM1304	Yerlarni agroekologik baholash	120	4	3
1.08	O'TAM1306	O'zbekiston tuproqlarining agrofizikasi	180	6	3
1.09	YERFM1106	Yer resurslaridan foydalanish	180	6	1
2.00	TFE214	Tanlov fanlari	420	14	2,3
2.00		Tanlov fanlari	420	14	2,3
Kvalifikatsiya		Agrotuproqshunos, pedagog-tadqiqotchi			
		Jami:	1800	60	
3.00	IF360	Ilmiy faoliyat	1800	60	
		Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	1080	36	(1,2,3,4)
		Ilmiy-pedagogik ish	360	12	(1,2,3)
		Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	360	12	4
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7
OKS 01.040.01

Guruh T 55

Tayanch so'zlar:

kasb faoliyati, magistratura, loyiha-texnologik, pedagogik, ilmiy-pedagogik ish, malaka amaliyoti, magistrlik dissertatsiyasi, baholash, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, kadrlarga talab, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti



Birinchi prorektori S.Ya. Islamov

2024 yil « 08 » 06

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor M. Boltabayev

2024 yil « 08 » 06

M.O'.



Andijon qishloq xo'jaligi va
agrotexnologiyalar instituti

Rektor T. Sultonov

2024 yil « 11 » 06

M.O'.



Tuproqshunoslik va agrokimyoviy
tadqiqotlar instituti

Direktori Sh. Bobomurodov

2024 yil « 10 » 06

M.O'.



“Tuproq tarkibi va repozitoriysi,
sifati tahlil markazi” DUK bosh

Direktori O. Jabborov

2024 yil « 10 » 06

M.O'.



Respublika agrokimyoviy tahlil markazi

Direktori V. Muxitdinov

2024 yil « 11 » 06

M.O.



“O'ZDAYYERLOYIHA” davlat ilmiy-
loyihalash instituti bosh

Direktori R. Turayev

2024 yil « 10 » 06

M.O'.

